O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

**Iqbol TOSHPO‘LATOVA**

# AN’ANAVIY CHOLG‘U IJROCHILIGI

(dutor)

Ta’lim yo‘nalishi: 5150700 – Cholg‘u ijrochiligi (an’anaviy cholg‘u ijrochiligi)

*Oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun*
*o‘quv qo‘llanma*

«Musiqa» nashriyoti
Toshkent
2018

**KBK 85.315**
**T 71**
**Toshpo‘latova I.S.**
**An’anaviy cholg‘u ijrochiligi (dutor).** O‘zbekiston davlat konservatoriyasi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma (o‘zbek tilida). - T.:, 2018. – 108 bet.

*Ushbu darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2017 yil 28 iyundagi 434-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan*

***Mas’ul muharrir:***

**Rifatilla QOSIMOV** – “An’anaviy cholg`u ijrochiligi” kafedrasi mudiri, professor

***Taqrizchilar:***

**Habibulla RAHIMOV –** O‘zbekiston Kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi rais o‘rinbosari, O‘zDK professori

**Shomaxmud SHORAHMEDOV** – O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “An’anaviy cholg‘u ijrochilik” kafedrasi dotsenti

**Saloxiddin AZIZBOYEV** – O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Ma’naviyat va ma’rifat ishlari bo‘yicha” prorektor

Mazkur o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston davlat konservatoriyasining “Cholg‘u ijrochiligi (an’anaviy cholg‘ular)” bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan. “Shashmaqom” tarkibidagi dutor cholg‘u ijrochiligiga xos bo‘lgan 24 ta maqom kuylari cholg‘uga mos holda notaga olingan va ulardan 4 yil mobaynida kontsert-pedagogik repertuarlarni boyitishda foydalanish mumkin.

Qo‘llanma “An’anaviy cholg‘u ijrochiligi (dutor)” fanidan dars berishni boshlayotgan yosh mutaxassislarga ham dastlabki uslubiy yordam vazifasini bajarishi mumkin.

**KBK 85.315**
**UO‘K 780.614.11**

© “Musiqa” nashriyoti, 2018.
© S.Azizboyev, 2018.

ISBN 978-9943-5153-3-8

# KIRISH

O‘zbek musiqa merosini o‘rganish va uni munosib darajada kelajak avlodga yetkazish azal-azaldan ijrochilik an’analarining “ustozdan-shogirdga” qabilida amalga oshirib kelinayotgan mezonidir. “Ustoz-shogird” an’anasi asosidagi an’anaviy musiqa sabog‘ini ta’lim tizimida qaror topishi zamonaviy ta’limning eng ahamiyatli bosqichlaridan hisoblanadi. Buni uzluksiz ta’lim tizimi doirasida shakllantirish, hamda uni har bir bosqich talablari asosida tartiblash, avvalo, bilimli mutaxassis tayyorlashning zamini, qolaversa barkamol avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Odatda, ijrochilik masalalari uzoq muddat shug‘ullanishni va shunga mos munosabatni talab etadi. Albatta, cholg‘u ijrochiligida uning texnik o‘zlashtirish darajalarini ta’limning boshlang‘ich va o‘rta bo‘g‘inlarida o‘zlashtirish maqsadga muvofiqdir. Muhimi, ijrochi kasbni o‘zlashtirish jarayonida asarni ham tarkiban, ham ma’nan idrok etishi va tushungan holda talqin etish ko‘nikmalarini hosil qilishi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shu bilan birga, ustoz-shogird an’anasini o‘zlashtirish va fazilatlarini saboq jarayonida shakllantirish sozandalar uchun juda ahamiyatlidir.

Uning eng muhim bosqichi ustozlik an’analarini idrok etishdan iborat. O‘quv tizimida oliy ta’lim bosqichi talabalarni mutaxassis darajasida shakllantirish uchun to‘la-to‘kis saboq davri, desak to‘g‘riroq bo‘ladi. Chunki talabalar oliy o‘quv yurtigacha cholg‘u ijrochiligining zarur texnikaviy mezonlarini o‘zlashtirib ulguradilar. Oliy ta’lim muassasasida esa asarlarning mohiyatini anglash va ularni mukammal tarzda talqin etish ustida saboq oladilar.

O‘zbek mumtoz musiqa merosi ko‘p ma’noli monumental asarlarni o‘zida mujassam etgan. Ularning munosib va go‘zal talqinlari mumtoz va zamonaviy ustoz sozandalar tomonidan ijro etilib kelinmoqda. Ustoz-shogird ta’lim uslubining muhim qirralaridan biri ana shu ijrochilikda yuzaga kelgan “induvidual”, ya’ni shaxsiy ijro talqinini tinglab o‘zlashtirish ekanligini e’tirof etish joizdir. Lekin dutor ijrosida bu mezon o‘zgacha jihatlar bilan ajralib turadi. Shu bois bo‘lsa kerak, dutor ijrosida yangrayotgan asarni har bir sozanda o‘zgacha jilo bilan, o‘ziga xos ijro etishi bilan ajralib turadi.

Zamonaviy jarayon va ta’lim tizimi ham bunga mos holda bo‘lishi muqarrar. Qilinayotgan ishlarning barchasi ta’lim tizimini isloh qilishga qaratilgan. Mazkur to‘plam ham shu uslubda bajarilgan ishlardan biri ekanligini e’tirof etish joiz.

Ma’lumki, maqom cholg‘u va ashula yo‘llarini o‘zlashtirish jarayonida, asosan o‘tmish ustozlar meros qilib qoldirib ketgan nota yozuvlari, magnitofon tasma yozuvlari va gramplastinkalarga yozilgan ijrolarga murojaat qilib kelinadi. Hozirgi kunda musiqa merosiga asoslangan ijrochilik sohasini munosib rivojlantirishda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “An’anaviy cholg‘u ijrochiligi» kafedrasi professor-o‘qituvchilari tomonidan diqqatga molik ishlar qilinmoqda. Milliy cholg‘ularimiz (tanbur, dutor, ud, rubob, g‘ijjak, nay, chang, qonun)ga, ya’ni har bir cholg‘u sozini ijro imkoniyatlari darajasiga qarab maqom kuylarini moslashtirilgan holda o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratilib, nashr

qilinmoqda. R.Qosimovning «Rubob navolari», «An’anaviy rubob ijrochiligi», «An’anaviy tanbur ijrochiligi», Sh.Shorahmedovning «Rubob taronalari», S.Azizboyevning «G‘ijjak navolari», R.Samadovning «Doira zarblari», S.Begmatov va N.Qodirovlarning «Ansabl sinfi», S.Begmatov va M.Matyoqubovning «An’anaviy xalq cholg‘ulari», M.Ziyoyevaning «F.Sodiqov hayoti va ijodi» kabi o‘quv-uslubiy qo‘llanmalari shular jumlasidandir.

Qo‘lingizdagi mazkur to‘plam dutor sozi uchun moslashtirilgan maqom turkum asarlari asosida tuzilgan. Bunda asosan Buzruk va Rost maqomlarining cholg‘u va ashula yo‘llari, birinchi va ikkinchi guruh sho‘balaridan turkum asarlar kiritilgan.

To‘plamdan o‘rin olgan turkum asarlarni tuzishda dutor cholg‘usida ijro etiladigan asarlarni talqin qilishdagi asosiy vazifalar maqsad qilib olingan. Ijrochilikda qo‘llaniladigan turli xil zarblar, bezaklar, qochirim, nola, kashishlar imkon darajasida ko‘rsatib berishga harakat qilindi. Asarni eshitib, so‘ngra nota yozuvida aks ettirilgan yozuvlarga ahamiyat bergan holda ijro etilsa, talaba-sozandaga har tomonlama qulaylik yaratiladi.

Albatta, har bir sozanda o‘z imkoniyati, iste’dodi, bilimi orqali to‘plamda ko‘rsatilgan kuylarni ijodiy talqin qilishi, idroklagan darajasi, asarni tushunishiga qarab undagi zarblar va bezaklarni to‘ldirishi mumkin. Chunki, maqom kuy va ashulalari, milliy ijrochiligimizning cheksiz izlanishlarga boy ijodiy jarayoni hisoblanadi.

## AN’ANAVIY CHOLG‘U (DUTOR) SINFI

An’anaviy cholg‘u ijrochiligi qadimdan “Ustoz shogird” an’analariga tayanib kelgan. Bolalar musiqa va san’at maktablari litsey, kollej va oliy o‘quv yurtlarida cholg‘ularni o‘rganish yakka tartibda amalga oshirilib, tasdiqlangan fan dasturlari asosida ta’lim berib kelinadi. Sababi, har bir o‘quvchi yoki talaba qobilyatiga, iqtidoriga qarab ularga alohida yondoshish talab qilinadi. Bilim va ko‘nikmalarni musiqa kollej-litseylarining an’anaviy cholg‘u sinfida ta’lim olib, dastlabki ijrochilik malakalariga ega bo‘lib keladilar. Mazkur qo‘llanma ham oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun an’anaviy dutor cholg‘usi bo‘yicha tayyorlangan. An’anaviy dutor cholg‘usi ijrochiligi orqali o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy olami va madaniy saviyasini yuksaltirish va yoshlarning mumtoz musiqaning eng sara namunalaridan bahramand qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Musiqa san’atini, xususan an’anaviy ijrochilik san’atini yanada rivojlantirishga katta e’tibor qaratilaganligi barchaga ma’lum.

Mustaqillikga erishilgandan so‘ng milliy musiqaga, xususan, an’anaviy cholg‘ularga bo‘lgan qiziqish ko‘paydi. An’anaviy dutor cholg‘usi ijrochiligi kollej-litsey va oliy o‘quv yurtlarida yildan yilga ko‘payib bormoqda. O‘zbekistonda musiqiy ta’lim ilg‘or ta’lim tizimlaridan biriga aylanganligining guvohimiz. Ta’lim tizimini rivojlantirishda Vazirlar Mahkamasining qarorlari, chora-tadbirlari o‘quv tizimida o‘z aksini topmoqda. Ma’lumki, O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida: – *“…agar insonning qulog‘i yengil-yelpi, tumtaroq ohanglarga o‘rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma’anaviy olamini sohta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Oxir – oqibatda bunday odam Shashmaqom singari milliy merosimizning noyob durdonalarini ham, Mosart, Betxoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo‘ladi”*[1], – deb yozganlar. Bundan xulosa shuki, mumtoz musiqamizning, maqomlarimiz tarixini, ijrosini o‘z yurtimizda o‘rganmasak, rivojlantirmasak ularni boshqa joyda rivojlantirib bo‘lmaydi.

Bu borada oliy o‘quv yurti professor-oqituvchilari tomonidan talabga javob beradigan darsliklar, o‘quv uslubiy qo‘llanmalar, dasturlar yaratilib, ta’lim tizimining barcha sohalarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanib kelinmoqda. O‘tiladigan har bir darsni innovatsion texnologiyalar yordamida tashkil qilish talabalarni mustaqil ravishda darslarga tayyorlanib kelishlarida “keys stadi” uslublari katta yordam bermoqda. Bunday uslublardan “aqliy hujum”, “zanjir”, “zinama-zina” kabilar talabalrning bilim olishini shakillantirishda katta ahamiyatga ega. Bilim, ko‘nikmalar avvalambor, talabani o‘ziga bo‘lgan ishonchini, erkin fikrlashini, o‘z fikrini boshqalarga yetkaza olishini shakillantiradi. Kelajakda talabalar o‘z cholg‘ularini mukammal ijro qilishlarigina emas, balki ulardan yaxshi ustoz-murabbiy bo‘lib yetishishlarida ham o‘z samarasini beradi. Bunga javoban

[1] Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T. “Ma’naviyat”, 2011. 143-bet.

ta'lim beruvchi ustozlar doim izlanishda bo'lib, o'z ustida muntazam ishlab, malakalarini ham oshirib borishlari kerak bo'ladi.

**Savol va topshiriqlar:**

1. "Ustoz-shogird" an'anasi, deganda nimani tushunasiz?
2. Zamonaviy texnologiyalarda o'qitish deganda nimani tushunasiz?
3. O'qitishning qanday usullarini bilasiz?
4. I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida "Shashmaqom" haqidagi ta'rifni o'qib, o'rganib keling.
5. Innovatsion texnologiyalar haqida ma'lumotlarga ega bo'ling.
6. An'anaviy dutor cholg'usi haqida tarixiy ma'lumotlar topib, o'rganib keling.

**Tayanch iboralar:** musiqa merosi, "Ustoz-shogird" an'anasi, mumtoz musiqa, cholg'u ijrochiligi, dutor cholg'usi.

**Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Toshpo'latova I. An'anaviy dutor ijrochiligi. –T., 2004.
2. Qosimov R. An'anaviy tanbur ijrochiligi. –T., 2002.

## DUTOR TARIXIDAN

Har bir kashfiyot ilmiy-ijodiy izlanishlardan boshlanib, uzoq muddatli yaratilish jarayoni natijasidan kelib chiqib kuzatiladi va so'ng tadqiqot qilinadi. Bunday jarayonlar yillarni, kerak bo'lsa, asrlarni qamrab oladi. Yuksak namuna amaliy foydalanishda an'anaga aylangungacha davom etadi. Ze'ro, kashfiyot an'anaga aylanmas ekan, keng miqyosda qabul qilinmas ekan u xalq mulki, milliy iftixori darajasiga ko'tarilmaydi. Dutor – o'zbek xalqi ma'naviyatining in'ikosidir. Shu bois uzoq o'tmishdan nola-yu sadolari bilan qalblarimizni to'lqinlantirib, inson ruhiga madad berib keladi.

Tarixiy yozma manbalarda bayon etilishicha, dutor dastlab XV asrda ilk bor tilga olinadi. O'z asrining musiqashunos allomasi Zaynulobiddin al-Husaynining "Qonuni ilmi va amali musiqiy" risolasida dutor haqida ma'lumotlar zikr etilgan. Risolada tasvirlangan cholg'u sozi zamonaviy dutordan unchalik farq qilmaydi. Mavjud farqlarni esa, asosan dutorlarning shakillanishida ko'rish mumkin. Xususan, cholg'uni dasta qismi qisqaroq bo'lib, kosasi zamonaviy dutorga nisbatan kattaroq (ud sozining kosasidan kichikroq) bo'lganligi qayd etilgan.

Dutor va uning tarixi, yaratilishi jarayoni, ommalashish davrlari xususida ham qator rivoyatlar mavjud. Sharqning buyuk allomasi Fisag'ursning ilk cholg'uni yaratishga turtki bo'lgan rivoyatini musiqashunos olim I.Rajabov "Maqomlar masalasiga doir" risolasida keltiradi.

"Bir kuni Fisag'ursning tushida bir mo'ysafid uning boshiga kelib shunday deydi: "Sen ertaga barvaqt turib, kaddof (paxta tituvchi)lar bozoriga borgil. U yerda

senga hikmat sirlaridan biri namoyon bo‘ladi”. Fisag‘urs ertalab kaddoflar rastasiga boribdi va u yerda hech narsani tushunmay qaytib kelibdi. Mo‘ysafid shu kuni kechasi tushiga yana kirib, kecha aytgan gapini takrorlabdi. Fisag‘urs uyg‘onib, ikkinchi marta bozorga borganida, paxta tituvchilar yoyining ipidan chiqayotgan tovush uning diqqatini jalb etibdi. Fisag‘ursning ko‘ngliga bir fikr kelibdi va u yerda yotgan ot dumining tolasini olib, bir uchini tishlab, ikkinchi uchini qo‘li bilan tortib turib chertgan ekan, mayin va yoqimli bir ovoz eshitilibdi. Keyinchalik Fisag‘urs qilni ipak ipga almashtiribdi. So‘ng, shu ipni taqib chalinadigan torli cholg‘u asbobi yaratish ustida mulohaza yurita boshlabdi. Kunlarning birida Fisag‘urs hakim tog‘ tomon yo‘l olibdi. Tog‘ning etagida kuchli shamol esib, qandaydir hushtak ovozi eshitilibdi. U yoq bu yoqqa qarab, ichi kavak bo‘lib, bo‘shab qolgan toshbaqa kosasiga ko‘zi tushibdi. Uning bosh, qo‘l, oyoq, dumi chiqib turadigan teshiklaridan o‘tayotgan shamol shunday tovush hosil qilayotganligini anglabdi. “Bir narsaga yarab qolar”, deb uni yerdan olibdi. Keyinroq toshbaqa kosasidagi eng katta teshikka (toshbaqaning boshi chiqib turadigan yerga) dasta o‘rnatibdi va unga ip taqib, chala boshlabdi. Bu tovush chiqaruvchi asbob dastlab juda sodda va oddiy bo‘lgan ekan. Insonlar uni o‘zaro “barbat” deya atay boshlashgan.

Fisag‘ursdan keyingi davrlarda yashagan musiqachilar yoqimli ohang taratuvchi mazkur cholg‘u (barbat)ni takomillashtirdilar va uning asosida 2-3-4 torli musiqa cholg‘ularini yaratdilar. Bundan tashqari, endilikda bizlar “dutor” deb biladigan cholg‘uning mungli nolasini eshitib g‘azabidan tushgan podshohlar haqida ko‘plab rivoyatlar ham mavjud. Bularning hammasini dutorning xalq orasida keng tarqalgani, hayot bilan hamnafas bo‘lganidan darak beradi, albatta.

XIX asrda O‘rta Osiyoga ekspeditsiya uchun kelgan olimlar, tadqiqotchilar, o‘lkashunos va etnograflar musiqa mahalliy aholining qon-qoniga singib ketganligini qayd qilib o‘tadilar. Deyarli har bir o‘zbek xonadonida dutor sozini ko‘rish mumkinligi va u O‘rta Osiyo xalqlarining eng sevimli cholg‘u sozi ekanligini yozib, o‘z kundaliklarida hamda ilmiy risolalarida bayon etganlar.

Dutor Markaziy Osiyoning o‘zbek, tojik, turkman va uyg‘ur xalqlari orasida keng tarqalgan cholg‘ulardan biridir. O‘lkamizning musiqa sozlari orasida dutor o‘zining mayin, xonaki tovushi bilan alohida ajralib turadi. Ayni paytda bizning Respublikamizda dutor ijrochiligi to‘rt asosiy lokal uslubga bo‘linadi. Bular: Xorazm, Samarqand–Buxoro, Qashqadaryo-Surxondaryo va Farg‘ona-Toshkent uslublaridir. Bu uslublar ichida Xorazm va Farg‘ona-Toshkent mahalliy yo‘llari alohida ajralib turadi. Nafaqat folklor va klassik san’atida, balki ijrochilikda shu vohalar cholg‘u sozining tuzilishi va ijro etilishida o‘ziga xos xususiyatlar bilan bir-biridan farq qiladi.

Vohalar ijro uslublarining takomillashib borishi natijasida dutor ijrochiligida turli maktablar vujudga keldi. Bu ijro maktablari vohalarining o‘ziga xos an’analari, shevalari va urf-odatlari bilan uyg‘unlashib ketgan. Bu, avvalo, cholg‘u sozi ko‘rinishida gavdalandi.

Dutor turlari haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, tarixiy rivojlanish jarayonida turkman, tojik, uyg‘ur, xorazm, o‘zbek dutorlari shakllangan. Bular tuzilishi

jihatidan unchalik farqlanmasa-da, har holda ko‘rinishi, torlari bilan bir-biridan biroz ajralib turadi. Masalan, uyg‘ur va tojik dutorlarining bir-biriga o‘xshashlik tomonlari shundaki, ularning kosasi turkman va xorazm dutoriga nisbatan birmuncha kattaroq bo‘ladi. Odatda turkman dutoriga metalldan yasalgan sim taqiladi. Tojik dutorlarini ayrimlari o‘zbek dutoriga o‘xshaydi. Ular kosasining o‘rtacha hajmi bilan bir-biriga yaqin turadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, O‘zbekistonning o‘zida ham dutorlar azaldan 2 xil yasalgan, ya’ni erkaklar dutori va ayollar uchun mo‘ljallangan dutorlar. Erkaklar dutorining kosasi kattaroq, dastasi esa uzonroq bo‘ladi. Ayollar dutorlari aksincha, kosasi kichikroq va dastasi ham nisbatan qisqa, ayollarga yarashadigan va nozikroq qilib mohir soz ustalari tomonidan yasaladi. Vohalar va turli xalqlarga xos dutorlarning ko‘rinishi ijro an’analariga ham ta’sir etishi muqarrardir. Shu nuqtayi nazardan biz o‘zbek, turkman, xorazm dutor ijrochiligi maktablari shakillanishini ko‘rishimiz mumkin. Dutor hatto yirik asarlarning yaratilishiga ham asos bo‘lganligini qayd etish joizdir. Bunga Xorazm dutor maqomlarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

O‘zbekistonda asosan Xorazm, Qo‘qon, Andijon, Toshkent kabi o‘ziga xos ijrochilik maktablari shakillangan.

**Savol va topshiriqlar:**

1. Dutor cholg‘usi o‘zbek xalqidan tashqari yana qaysi xalqlarda uchraydi?
2. Dutor ijrochiligida qanday lokal uslublar mavjud?
3. Tojik, turkman va uyg‘ur dutorlarining o‘zbek dutoridan farqini topib o‘rganib keling.
4. Uyg‘ur va tojik dutorlarining bir-biriga o‘xshashlik tomonlarini toping.

**Tayanch iboralar:** Tarixiy yozma manbalar, musiqashunos alloma, risolada tasvirlangan, dasta qismi, kaddof, barbat, dutor, ijro uslublar, ijrochilik maktablari.

**Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Toshpo‘latova I. An’anaviy dutor ijrochiligi. –T., 2004.
2. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

## DUTOR VA UNING O‘ZBEK AN’ANAVIY MUSIQA IJROCHILIGIDAGI O‘RNI

Qadimiy madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lgan – O‘rta Osiyoda yashagan xalqlar jahon fani va madaniyati xazinasiga salmoqli hissa qo‘shganlar. Ular musiqa madaniyati sohasida ham juda boy qadimiy merosga egadirlar. O‘zbekiston hududida keng tarqalgan cholg‘ular xususida to‘xtaladigan bo‘lsak, shulardan biri dutordir. Uning juda qadimiyligidan darak beruvchi, Tuproq qal’a (miloddan avvalgi IV-III asrlar)dan topilgan ikki torli cholg‘ularning keyinchalik dutor, dombra va qo‘biz shaklida takomillashganligini ko‘rsatadi. Bu cholg‘ular tut yoki

o‘rik yog‘ochidan yasaladi. Ular qovurg‘ali o‘yma dutor va o‘yib ishlangan dutor bo‘lgan. Qopqog‘i esa tut yog‘ochidan yupqa qilib ishlangan. Dutorlar tori sozlanishi bo‘yicha kichik oktava “re” notasidan, katta oktava “sol” yoki “lya”, ba’zan esa qo‘shtor qilib ham sozlanadi. Bu cholg‘u o‘zbek an’anaviy musiqa ijrochiligida juda katta ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, u yakka tarzda, jo‘rsozlikda, jo‘rnovozlikda va ansamblllarda o‘z o‘rniga ega. Og‘ir kuylar yakka tarzda ijro qilinganda dutor shunday bir mungli va sehrli ovozga egaki, insonning ruhini tinchlantiradi va ma’naviy oziqlantiradi. Agar, sho‘xchan va tez quvnoq kuylar ijro qilinsa, tinglovchining qalbini quvontiradi va zavq bag‘ishlaydi. Dutor cholg‘usi boshqa cholg‘ularimizga qaraganda zarblar jihatidan ham keng imkoniyatlarga ega. Shuning uchun ham xalq kuylari, maqomlarning qashqarcha, soqinoma, ufor kabi sho‘xchan taronalari bu cholg‘uda o‘zgacha jarang topadi.

Jo‘rnavozlikda “dutor” va “tanbur” cholg‘ulari ijrosidagi kuylar bir biriga hamohangdir. Xususan, bu cholg‘ularda ijro qilinadigan kuylar yoki ashulalar misolida ko‘rishimiz mumkin. Bu cholg‘ular bir birini shunday to‘ldiradiki, ulardan go‘zal yangi bir ohang paydo bo‘ladi.

Dutor cholg‘usining yana bir muhim jihati shundaki, bu sozda yakka ijro qilinganda o‘ng qo‘ldagi zarblarning “usul beruvchi” vazifasini bajarishi aksariyat hollarda doirasiz yakka ijro qilinishiga sabab bo‘ladi.

O‘zbek an’anaviy musiqa ijrochiligida keng tarqalgan ijro amaliyotida tanbur, rubob, dutor, g‘ijjak, chang, nay, surnay, qonun, doira kabi har tomonlama takomillashgan cholg‘u asboblari mavjud. Cholg‘ularning takomillashuvi ularning ovoziga, ovoz diapazoniga, shakllariga ta’sir ko‘rsatgan. Dutor cholg‘usi manbalarda yozilishicha deyarli o‘zgarmagan. Qadimda dutor cholg‘usi asosan ayollar tomonidan ijro qilingan va ijro amaliyotida keng ommalashgan. Shu bois bo‘lsa kerak, dutor sozining mayin va xonaki ovozga egaligi bizgacha o‘zgarmastan yetib kelgan.

**Savol va topshiriqlar:**

1. Dutor cholg‘usi nechanchi asrda va qayerda topilgan?
2. Dutor cholg‘usini yasalishida qanday daraxt yog‘ochlaridan foydalanilgan?
3. Dutor zarblarini topib o’rganib keling.
4. Dutorni sozlash xaqidagi ma’lumotlarga ega bo’ling.

**Tayanch iboralar:** tut yoki o‘rik yog‘ochi, tuproq qal’a, qopqoq, dutorlar tori, usul beruvchi.

**Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Toshpo‘latova I. An’anaviy dutor ijrochiligi. –T., 2004.
2. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

## DUTOR IJROCHILIGI MAKTABLARI

XX-XXI asrlarga kelib, dutor ijrochiligi professional darajada rivojlana boshladi. Bir qator mohir ijrochilar shakllandi. Dutorni go‘zal sadolantirishning turli ko‘rinishlari va uslublari paydo bo‘ldi. Bu bir-biridan serjilo ijro uslublari o‘ziga xosligi bilan tinglovchilar dilidan joy ola boshladi. Ularning uslublariga qiziqqan yoshlar ham paydo bo‘ldi, natijada ijrochilik maktablariga aylandi. Dutor ijrochilik uslublari haqida gapirar ekanmiz, biz Xorazm dutor maktablari va o‘ziga xos go‘zal ijrochilik uslubini qayd etmasdan ilojimiz yo‘q. Farg‘ona-Toshkent vohasidagi ko‘p ijro yo‘llaridan - Qo‘qon dutor ijrochilik maktabining an’analari ham alohida ajralib turadi. Dutor ijrochiligining an’anaviy uslubda maxsus maqom yo‘llari yaratilgan.

Xorazm vohasida dutor cholg‘uchiligi ham o‘ziga xos bo‘lib, unda o‘ng qo‘l zarblari rez usulidagi uzluksiz davomiy ijrosi bilan ajralib turadi. Har bir kuchli hissani bo‘rttirib, o‘ng qo‘lning to‘rt barmog‘i va jimjiloqni qopqoqqa tekkizib, tirnab va chertib ijro qilish asosiy xususiyatlardan hisoblanadi. Dutorning o‘ng qo‘l zarblari Xorazmda “dast” deyiladi. Ular o‘z ichiga kuy va usul bo‘laklarini murakkab va jozibali jihatlarini birlashtiradi. Keksa sozandalarning aytishiga qaraganda, doston nomalariga jo‘r bo‘luvchi doira ham usulni dutor zarblaridan o‘rgangan. Nomalarning kuy tuzilishi va tezkor rivojlanganligidan baxshilar dutorning ijro imkoniytlaridan to‘liq foydalanganlar. Xorazm dutor ijrochiligini takomillashuvida bir qator ustoz ijrochilarining katta hissalari bor.

Bulardan – Nurmuhammad Boltayevni alohida ta’kidlab o‘tish joizdir. Ustoz ijrosidagi – “Orazibon”, “Qarinavo”, “Aliqambar”, “Qoradali”, “Roviy”, “Dilxiroj” kabi xalq kuylarida Xorazm ijro uslubini, ya’ni qopqoqqa urib, to‘rt barmoqni birgalikda terib chalishlarni yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Farg‘ona-Toshkent dutor ijrochiligida shaxsiy uslublar muhim ahamiyat kasb etgan. O‘z ijrolari bilan musiqa ijrochiligi san’atiga salmoqli hissa qo‘shgan zabardast ustozlar – Faxriddin Sodiqov, Mahmud Yunusov, Orif Qosimov, Zokirjon Obidov, Komiljon Jabborov, Turg‘un Alimatov kabilarning ijro yo‘llari musiqa san’atimizda o‘rnak uslublardir.

**Savol va topshiriqlar:**

1. Faxriddin Sodiqov ijro uslubi boshqa dutorchilarning uslubidan nimasi bilan farqlanadi?
2. Farg‘ona-Toshkent dutor ijrochiligiga hissa qo‘shgan sozandalardan kimlarni bilasiz?
3. Xorazm dutor ijrochiligi uslubini o‘rganib keling.
4. Qo‘qon dutor ijrochilk maktabi xaqida ma’lumotga ega bo’lib keling.

**Tayanch iboralar:** Farg‘ona-Toshkent vohasi, Xorazm dutor maktablari, Qo‘qon dutor ijrochilik maktabi, o‘ng qo‘l zarblari, dast.

**Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Toshpo'latova I. An'anaviy dutor ijrochiligi. –T., 2004.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

## MOHIR USTOZLARNING IJRO USLUBLARI HAQIDA

Buyuk ustoz, benazir sozanda va bastakor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi **Faxriddin Sodiqov**ning ijro uslubi o'zbek musiqasi ijrochiligida yangi bir sahifa ochdi. Dutorning imkoniyatlarini to'la ochib berishda va mumtoz asarlarni ijro etishda muhim ahamiyat kasb etdi. Faxriddin Sodiqovning bu darajadagi ijro uslublari – mavjud barcha ijrolar va ulardan o'zgacharoq harakatlarni mujassamlashtirgan. Bu avvalambor ijrochi tomonidan juda nozik va mayin cholg'u chertishdan iboratdir. Ya'ni ijrochining o'ng qo'li harakatida dutor qopqog'iga tegmasdan torlarini sadolantirishi lozim. O'ng qo'lning mayinligi juda muhim. Demak, ortiqcha zarblardan qochish lozim. Go'yoki dutorda so'z talaffuzi kabi mahoratda tarannum etishdir. Chap qo'ldagi harakatlarda eng muhim hisoblangan bir usul mavjud. Bu - "miyang'" deyiladi, ya'ni tanburda erishiladigan kashishning dutordagi ifodasi demakdir. Dutorda ham kashish 0,5 va 1 tongacha yetib boradi. Buni cholg'uda ifodalash, ko'rsata bilish o'z navbatida cholg'uchidan yuksak mahorat va yuqori malaka talab qiladi. Bu usul asarning jozibasi va mukammalligini ta'minlaydi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ustoz Faxriddin Sodiqovning ijro uslubi - o'zbek musiqasi ijrochiligida, ayniqsa, dutor ijrochiligida katta burilish yasadi, deb bemalol aytishimiz mumkin.

XX asr oxiri, XXI asrning boshlarida ustoz Faxriddin Sodiqovning sevimli shogirdlari bo'lgan – mohir sozanda, ustoz-san'atkor, dotsent Abdurahim Hamidovning olib borgan samarali mehnati natijasida, ustoz yaratgan ijro uslubi, shogirdlar tomonidan targ'ib qilinib, o'zlashtirib kelinmoqda. Faxriddin Sodiqov shogirdlariga "Fabrika", "Shafoat", "Cho'li Iroq", "Ajam taronalari", "Chorgoh II" va "Chorgoh III", "Yor bilib" kabi o'zbek xalq kuylari, mumtoz va bastakorlar asarlarini o'rgatish bilan bir qatorda, o'z ijro uslubi asosini qalbiga joy qilgan. Ajoyib sozanda, mohir ustoz-muallim, o'zbek maqomlari va bastakorlik ijodiyotining bilimdoni sifatida **Abdurahim Hamidov** o'zining butun ijodiy faoliyati davomida ustozining ijro uslubini yanada boyitib, sayqallatib, ijroning yanada mukammallashishiga erishadi. Abdurahim Hamidovning buyuk ishlaridan yana biri – "Shashmaqom"ning mushkilot qismini magnit tasmalariga muhirlaganligidir. Ayni paytda ushbu musiqiy yozuvlardan keng foydalanib kelinmoqda. Konservatoriyada faoliyat ko'rsatib kelgan yillari bir qancha shogirdlarni yetishtirib chiqardi. Bular – Iqbol Toshpo'latova, Shuhrat Razzoqov, Matluba Kalonova, Feruza Sapayeva, Xurshida Qahhorova va Go'zal Mo'minovalardir. Hozirgi kunda ustozning shogirdlari turli musiqa maskanlarida faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar va dutor ijrochiligi sirlarini yoshlarga targ'ib qilib qilishmoqda.

Ustoz **Malika Ziyoyeva** Yunus Rajabiy nomidagi maqomchilar ansamblida bir necha yil ijod qilib kelgan. U ansamblda O‘zbekiston xalq artisti, professor Turg‘un Alimatov, O‘zbekiston xalq artisti Orif Qosimov kabi xalq ardog‘idagi san’at darg‘alari bilan yonma-yon o‘tirib, ijodiy faoliyat olib borgan. Malika Ziyayeva o‘ziga xos ijro uslubiga ega bo‘lgan sozanda. Ustozidan meros bo‘lib qolgan ijro uslubini shogirdlariga o‘tkazib, bu uslubni, ya’ni Faxriddin Sodiqov ijro uslubini maktab darajasiga chiqardi. Shogirdlari tomonidan, yakka dutor ijrosida o‘zbek xalq kuylari, bastakorlar, “Shashmaqom” tarkibidagi eng murakkab turkum asarlaridan hisoblangan - Saraxborlar, Talqinlar, Nasrlar, Savtlar, Mo‘g‘ilchalar ijro qilinmoqda.

**Zokirjon Obidov** ijro uslubining asosiy negizi uning o‘ng qo‘l harakatida, barmoqlari va beriladigan urg‘ularni turli ko‘rinish va shakllarda ishlatishida, o‘zbek musiqasida jozibalik “teskari zarb”larni mohirona qo‘llashidadir. Ustoz Zokirjon Obidov ijro uslubidagi teskari zarblar boshqa dutor ijro uslublaridan farqli o‘laroq, teskari zarblar orasiga pirrang va rezlar joylashgan. Ustoz ijro uslublari chap qo‘l harakatlarining soddaligi va o‘ng qo‘l zarblarining mukammaligi bilan ham el orasida shuhrat qozongan.Uning eng taniqli asari – “Gilos” nomli kuyida ushbu uslublar yaqol nomoyon bo‘lgan.

**Mahmud Yunusov** uslubi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, chap qo‘l harakatiga asoslangan. Mahmud Yunusov chap qo‘l bilan juda mohirona o‘zbek milliy sayqal va qochirimlarini ishlata olgan. O‘ng qo‘l harakatlari esa oddiy va sodda zarblardan tashkil topgan. Shuning hisobiga ijro sersayqal hamda serjilo yangragan. Uslubning o‘ziga xos yana bir jihati shundaki, ustoz sozanda o‘ng qo‘l bilan zarb berganda, barmoqlarini dutor qopqog‘ini ishqab harakatlantirganlar. Bu harakat asosida xalqimiz ularni “Mahmud tarasha” deb nomlagan. Aslida cholg‘u elning dilidan joy olib, nazariga tushib, xalq tomonidan e’zozga ega bo‘lishi, Mahmud Yunusov kabi mohir sozandalar o‘z kasbining fidoyisi bo‘lgan insonlarga bog‘liqdir.

**Orif Qosimov** uslubi ko‘proq akademik yo‘lga mansubligi bilan ajralib turadi. Ijroda texnik haraktlarga ko‘proq e’tibor berilgan. Uning ijro uslublarida chap qo‘l tekis va ravon yurg‘izilgan, o‘ng qo‘l zarblari esa aniq va keskin berilgan.Ustoz ijrosidagi “Cho‘li Iroq”, “Samoi Dugoh”, “Shafoat”, “Chapandozi Bayot” kabi kuylarda bu ijro uslubining yaqol namoyon bo‘lganligini ko‘ramiz.

**Turg‘un Alimatov –** an’anaviy ijrochilikda katta mahoratga ega bo‘lgan sozandalardan biridir. Uning ijro uslubida keng qo‘llaniladigan turli xil nola, qochirim, zarb, miyang‘, kashish, forshlag kabi musiqiy bezaklar asar ijrosidagi yetuklikni anglatgan. O‘zbekiston xalq artisti, benazir ustoz-sozanda, professor Turg‘un Alimatovning dutor ijrochiligi uslubi o‘ziga xosdir. Ustozning dutor chalayotgandagi o‘ng qo‘li va chap qo‘l harakatlari dutorning sadosiga e’tibor berganda chap qo‘ldagi har bir sayqal bilan o‘ng qo‘l harakatidagi zarblarda uyg‘unlik yaqqol namoyon bo‘ladi. Uning dutor ijrochiligidagi o‘ziga xos tomonlardan yana biri – bu tanbur va sato cholg‘ulari ijrosi an’analarini dutorga moslashtirganliklaridir.

O‘zidan avlodlarga maktab qoldirgan bu ustozning ijro uslubi asosini chap qo‘lning zarbsiz ijro etiladigan forshlaklari tashkil etadi. Misol tariqasida, uning ijrosidagi “Tanovor” kuyini oladigan bo‘lsak, bu kuyni forshlaklarsiz tasavvur qilish qiyin.

**Savol va topshiriqlar:**
1. Z.Obidovning ijro uslubi haqida nimalarni bilasiz?
2. T.Alimatov ijro uslubi haqida qanday ma’lumotlarga egasiz?
3. A.Hamidovning ijrochilik uslubidagi farqni aniqlab toping.
4. M.Yunusov va O.Qosimov ijro uslublarining farqini aniqlab bering.

**Tayanch iboralar:** dutor qopqog‘iga tegmasdan, miyang‘, bastakorlar asarlari, yakka dutor ijrosi, teskari zarb, chap qo‘l harakatlari.

**Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Toshpo‘latova I. An’anaviy dutor ijrochiligi. –T., 2004.
2. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

## DUTOR IJROCHILIGIDAGI BEZAKLAR

**Dutor ijrochiligining jozibasi** – rang-barang zarblardan hosil bo‘ladigan sadolarni turli bezak va jilolar bilan bezashdir. Shu bois dutorga xos bezak – qochirimlar an’anaviy ijrochilikda munosib o‘rin olgan. Ular sozandalar orasida **qochirim, kashish, miyang‘, molish, nolish, to‘lqinlatish** kabi iboralar bilan ataladi. Har bir bezak o‘z ko‘rinishi, ijro uslubi va shunga xos jozibali sadosiga egadir. Ularni mahorat bilan amalga oshirish uchun ijro texnikasini o‘zlashtirish lozim.

Quyida dutor ijrochiligiga xos jilo-bezaklarining sharhi, yozilish uslubi va nota namunasidagi o‘rnini qisqa misollarda keltiramiz.

S.M.Taxalov o‘zbek an’anaviy musiqasida bezaklar haqida so‘z yuritgan. O‘zbek chertma cholg‘u asboblarini ijro paytida ayrim tovushlar (ba’zan bir necha tovush) torga urmasdan ijro etiladi. O‘sha notaning ustiga qo‘shuv (+) belgisi qo‘yiladi. Tovush chap qo‘l barmoqlarini pardaga bosish natijasida hosil qilinadi. Tanbur, dutor, qashqar va afg‘on ruboblarida tovush hosil qilishning ana shunday usuli ham turli melizmatik bezaklarni ijro etishda tez-tez uchrab turadi, bu an’anaviy ijrochilikda alohida o‘rin egallaydi.

NAVRO‘ZI SABO



**Qochirim –** an’anaviy musiqa ijrochiligida oddiy va murakkab jilolar - qochirim turlariga kiradi. Odatda bu bezaklar barchaga ma’lum forshlag, trel, mordentlar kabidir:



SARAHBORI DUGOH



**Kashish –** ushbu o‘ziga xos bezakni dutorda ijro etishda chap qo‘l barmoqlari pardada vertikal holda joylashadi va torlar pardada yarim tongacha ezilib, yuqoriga tortiladi. Natijada dutor nolishida **miyang‘** ovoz harakatidagi sado hosil bo‘ladi. Kashishlar shartli ravishda ikkiga bo‘linadi. Yarim tongacha bo‘lgan kashish. Bu kashish nota ko‘rinishida quyidagicha belgilanadi:



Ikkinchisi: bir tongacha bo‘lgan oraliqqa ega bo‘lib, notada quyidagicha belgilanadi:



**Molish –** barmoqni bir tovushdan ikkinchi bir tovushga ohista sirg‘altirish orqali erishiladigan usul, ya’ni akademik ijrochilikda qo‘llaniladigan “glissando”ga o‘xshash talqin etiladi. Bunda barmoq bir necha tovush oralig‘ida sirg‘aladi. Molish bezagi kichik, katta sekunda va tersiya intervallari orasida pastdan yuqoriga yoki yuqoridan pastga harakatlanadi. Tovushdan-tovushga ko‘chishni faqat bir barmoq bajaradi. Bir parda ikkinchi pardaga sirg‘alib o‘tishda zarb birinchi notada amalga oshiriladi, lekin keyingi, + belgisi qo‘yilgan notada esa faqat birinchi zarbning aks-sadosi qolishi zarur:



**To‘lqinlatish (vibrato)** – bu bezak deyarli barcha xalq kuylari va ashula yo‘llarini ijro qilishda qo‘llaniladi. Chap qo‘l barmog‘ini pardaga bosib, o‘ng

qo‘lda zarb urilgandan so‘ng, barmoqning o‘zida torni vertikal holda bosib titratish yo‘li bilan hosil qilinadi:

CHORGOH II



Hozirgi kunda Respublikamizda an’anaviy dutor ijrochiligi tobora ommalashib bormoqda. Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Abdusoat Vahobov, Qozixon Madrahimov, Yunus Rajabiy, Usta Ro‘zimatxon Isaboyev, Orif Qosimov, Mahmudjon Yunusov, Turg‘un Alimatov, G‘ulomjon Qo‘chqorov kabi zabardast ustoz san’atkorlar izidan borayotgan – Malika Ziyoyeva, Iqbol Toshpo‘latova, Shuhrat Razzoqov, Ro‘zibi Hojiyeva kabi zamonamizning taniqli ustoz hamda mohir dutorchilari faoliyatida an’anaviy dutor ijrochiligi o‘ziga xos tarzda davom etmoqda, rivojlanmoqda.

An’anaviy dutor ijrochiligida Faxriddin Sodiqov maktabi bezaklarni ishlatish borasida ham alohida e’tiborga loyiq. Maqom kuylarini ijro etishda o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ustoz har bir kuyni ijro qilishdan oldin usuliga, kuy holatiga qarab zarb tanlar edilar. Farg‘ona-Toshkent ijrochiligida bu uslub o‘ziga xos tarzda “ipak chalish” usuli deb ham nomlanadi. Ayniqsa, o‘ng qo‘l mayin harakatlanib, ayollarga xos yo‘l-miyang‘, kashish bezaklari yordamida kuyga alohida joziba baxsh etgan. O‘ng va chap qo‘llar harakatlari bir-biriga juda mutanosib bo‘lgan. O‘ng qo‘l zarblarida qilinmagan qochirimlarni, chap qo‘l yordamida kashish-miyang‘lar bilan to‘ldirilgan. Faxriddin Sodiqovning dutor maktabiga xos jihatlar-dan biri – dutor ijrochiligini ayollar xarakteriga o‘xshashligidir. Dutorni hech qachon qattiq chalmas edilar. Qo‘llarini pardalarga juda muloyimlik bilan harakatlantirib, ko‘proq yuqoriga yo‘nalgan zarblarni ishlatganlar. O‘ng qo‘l barmoqlari dutor qopqog‘iga sira urilmas edi. Chap qo‘l barmoqlari pardalarda iloji boricha muloyim harakatlangan. Uzib chalish holatlari kam uchragan. Faxriddin Sodiqov dutor ijrochilik maktabi va uning ijro usullari xususida dotsent Malika Ziyoyeva izlanishlar, tadqiqotlar olib bordilar.

O‘zbek dutor ijrochiligi naqadar sehrli, jozibador hamda turfa xildir. Unda bir necha voha an’analari, sanoqsiz bezak va jilolar, behisob ohanglar tarovati mujassamdir. Ularni o‘rganib, turli maktablarga xos an’analarni o‘zlashtirish – bu san’at turini yanada rivojlantirish hamda dutor jozibasini tinglovchiga to‘laqonli

yetkazish imkoniyatini yaratadi. Niyatimiz – kelajak avlod koʻp qirrali oʻzbek sanʼatining bir boʻlagi boʻlgan anʼanaviy dutor ijrochiligi merosidan bahra olsin.

**Savol va topshiriqlar:**

1. Dutor ijrochiligida qanday bezaklarni bilasiz?

2.An'anaviy dutor ijrochiligida faoliyat koʻrsatib kelayotgan ustozlardan kimlarni bilasiz?

3. An'anaviy dutor ijrochiligiga xos bo'lgan bezak-qochirimlar va ularni qanday ijro etishni aytib bering.

4. An'anaviy dutor ijrochligida oʻng va chap qoʻl holatlaini tushuntirib bering.

**Tayanch iboralar:** bezak va jilolar, dutorga xos bezak, qochirim, kashish, miyangʻ, molish, nolish, toʻlqinlatish, ipak chalish.

**Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Toshpoʻlatova I. An'anaviy dutor ijrochiligi. –T., 2004.
2. Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

## BERILGAN ASARLARGA IZOHLAR

**1. Tasnifi Rost** – Rost maqomi mushkilot boʻlimining birinchi kuyining nomi. Ushbu asarni ijro etishda dutor “Tanovor” soziga, ya'ni (kvartaga) sozlanadi. Birinchi ochiq tor - “re” birinchi oktava, ikkinchi tor “lya” kichik oktavaga sozlanadi.

Ijrochilik amaliyotida bu asarni gʻijjak, rubob, chang, ud, tanbur kabi cholgʻularda ijro etish qulay. Dutorda esa muayyan mushkulliklar mavjud. Chunki ikki oktavali asarlarni ijro etish mushkulroq boʻlib, dutor diapazoni har doim ham bunga toʻgʻri kelavermaydi. Ushbu kuy Rost maqomi tovush qatori “do” pardasidan boshlanadi. Ijroda shakliga rioya qilib, buzmasdan talqin etish kerak. Qoʻllanmada ushbu asarlarni, dutorda ijro qilishga qulay boʻlishi uchun “re” pardasiga rioya qilib berilgan.

**2. Garduni Rost** kuyi ham xuddi Tasnifi Rost kuyi soziga sozlanadi. Tasnifi Rost kuyidagi kabi bunda ham 10-11-13 xonalarda uchraydigan yuqori pardalarni pastki oktavada ijro qilinishi koʻzda tutilgan. Pastki oktavadagi “do” notasidan boshlab dutorni ikkinchi torida “pizzicato' uslubida ijro qilsa ham boʻlaveradi.

**3. Muxammasi Ushshoq** – Rost maqomi mushkilot boʻlimidan oʻrin olgan kuy. Ushbu kuy dutorda talqin etish uchun qulay boʻlgan pardaga moslab berilgan. Diapazonidan past boʻlgan notalar “pizzicato” uslubida ijro qilinadi. Shu bilan birga yuqorida keladigan pardalarni bir oktava pastdan ijro qilsa boʻladi.

**4. Muxammasi Panjgoh** – Rost maqomi mushkilot boʻlimining muxammas usulida ijro qilinadigan asar. Asar dutor cholgʻusining diapazonini hisobga olgan holda, oʻziga xos pardaga moslab berilgan. 9 ta xona va 4 ta bozgoʻydan iborat.

**5. Saqili Vazmin** – Rost maqomi mushkilot bo‘limi tarkibidan o‘rin olgan kuy.

**6. Saqili Rak-rak** – Rost maqomi mushkilot bo‘limining shu usulda ijro etiladigan kuyining nomi. Ushbu asarda ham yuqorida aytib o‘tilgan tavsiyalarga amal qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**7. Mo‘g‘ulchayi Buzruk** – Buzruk maqomi Nasr (ashula) bo‘limining II guruh sho‘balaridan biri. Ushbu asar turkum hisoblanib, talqincha, qashqarcha, soqiynoma, ufor shaxobchalaridan iborat. Mo‘g‘ulcha usulida ijro etiladi. Asar dutorda qulay ijro qilinadigan pardada berilgan. Kuyda yuqori diapazonda keladigan pardalar bir oktava pastdan ijro qilinsa ham bo‘ladi. Bu usulni ijro turkumdagi barcha shaxobchalarga ham qo‘llash mumkin.

**8. Talqinchayi Mo‘g‘ulchayi Buzruk** – Mo‘g‘ulchayi Buzruk turkumining ikkinchi asari hisoblanadi. Kuy talqin usulida, 3/4; 3/8 o‘lchovida ijro etiladi.

**9. Qashqarchayi Mo‘g‘ulchai Buzruk** – turkumining navbatdagi uchinchi qismidir. Mazkur kuy qashqarcha usulida, 4/4 o‘lchovida ijro etiladi.

**10. Soqiynomayi Mo‘g‘ulchayi Buzruk** – Mo‘g‘ulchayi Buzruk turkumining to‘rtinchisi hisoblanadi. U soqiynoma usulida, 4/4 o‘lchovida ijro etiladi.

**11. Ufari Mo‘g‘ulchayi Buzruk** – Mo‘g‘ulchayi Buzruk turkumining beshinchi, ya’ni yakuniy qismidir. Ufar usulida, 6/8 o‘lchovida ijro etiladi.

**12. Talqini Ushshoq** – Rost maqomining birinchi guruh sho‘balariga kiradi. Kuy talqin usulida, 3/4; 3/8 o‘lchovida ijro etiladi.

**13. Talqini Ushshoq taronasi** – Rost maqomiga kiradi. Asar Nasr uslubda bo‘lib, 6/4 (2/4; 4/4) o‘lchovida ijro etiladi. Pastki diapazonda keladigan pardalar dutorning ikkinchi torida “pizzicato” uslubi asosida ijro etiladi.

**14. Nasri Ushshoq** – Rost maqomining birinchi guruh sho‘basiga kiradi. Asar Talqini Ushshoqdan keyin keladi va Nasr usulida 6/4 (2/4; 4/4) o‘lchovda ijro etiladi.

Pastki diapazonda keladigan pardalar dutorni ikkinchi torida “pizzicato” uslubiga xos chalinadi. Kuyning boshlanish qismida ham xuddi shu uslubdan foydalaniladi.

**15. Talqini Uzzol** – Buzruk maqomi Nasr (ashula) bo‘limining I guruh sho‘basi tarkibidan o‘rin olgan. Kuy talqin usulida ijro etiladi. O‘lchovi 3/4; 3/8. Kuyni ijro etishda birinchi torni birinchi oktava “re” tovushiga, ikkinchi torni kichik oktava “sol” tovushiga sozlanadi.

Amaliyotda bunday sozlanish uslubi Munojot sozi, ya’ni kvinta sozi deb ham ataladi.

**16. Talqini Uzzol taronasi** – bu kuy ushbu asar taronasiga kiradi.

**17. Nasrulloi** – Buzruk maqomining birinchi guruh sho‘balariga kiradi. Kuy Nasr usulida, 6/4 (2/4; 4/4) o‘lchovida ijro etiladi.

**18. Nasrulloyi** kuyining birinchi taronasi.

**19. Nasrulloyi** kuyining ikkinchi taronasi.

**20. Hojiniyoz** mohir sozanda va bastakor Abduhoshim Ismoilov kuyini mashhur ustoz Mahmudjon Muhammedovdan o‘rgangan. O’zbekiston davlat

konservatoriyasi professori Rifatilla Qosimov, "Shashmaqom"ning ikkinchi guruh sho'balariga hos "Savt" va "Mo'g'ulcha" turkumiga qiyos holda moslashtirgan.

**21. Hojiniyoz talqinchasi "**Shashmaqom"ning ikkinchi guruh sho'balariga hos turkumning ikkinchi qismi odatga ko'ra "Talqincha" usulida mavjud.

**22. Hojiniyoz qashqarchasi** mumtoz musiqa merosi namunasida to'rt hissali usul asosida yaratilgan.

**23. Hojiniyoz soqinomasi** ijrochilik amaliyotida alohida o'rin egallab kelgan. Kuyning jozibali metroritmik asosi, serqirra va o'ynoqi usul bilan asarning har tomonlama salobatli tuslanishiga zamin yaratib kelgan.

**24. Hojiniyoz uforisi** turkumning yakunlovchi namunasi sifatida namoyon bo'ladi. Uforning metroritmik sur'atiga solinganligi kuyga alohida joziba baxsh etadi. Uforning yakunlovchilik vazifasi, jo'shqinlik va ko'tarinkilik xarakteri turkumning janrlik xususiyatini saqlab, uni yakunlashda muhim o'rin tutadi.

**Tayanch iboralar:** "Tanovor" sozi, mushkilot bo'limi, pizzicato.

**Foydalanish uchun adabiyotlar:**

1. Rajabiy Yu. Shashmaqom. II jild. –T., 1968.
2. Rajabiy Yu. Shashmaqom. I jild. –T., 1966.
3. Framplastinkalar: Д-019013, Д-019014, Д-020507.
4. Toshpo'latova I. An'anaviy dutor ijrochiligi. –T., 2004.
5. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.

soz 

# TASNIFI ROST





3
p
p
Bozgo‘y
4


Bozgo‘y


5
p
mf
p
p


p
Bozgo‘y
p
6
f
mf


mf
mf
p




soz

# GARDUNI ROST

**M.M. ♩=92**




4 xona
mf
Bozgo‘y
p
5 xona
mf
6 xona
mf
7 xona
8 xona
f
9 xona


10 xona
Pizz.
11 xona
Pizz.
*f*
12 xona
*mf*
13 xona
Pizz.
*f*
*mf*
Bozgo‘y
*p*
14 xona




## MUXAMMASI USHSHOQ

soz 

**M.M. ♩=92**

1 xona




Bozgo‘y
mf
p
mf
2 xona
Bozgo‘y
mf


3 xona
4 xona
Pizz.


5 xona
6 xona
Bozgo‘y




# MUXAMMASI PANJGOH




2-xona
p
pizz.
3-xona pizz.
mf
4-xona pizz.
mf


Bozgo‘y
p
mf
5-xona
Bozgo‘y
p


6-xona
mf
7-xona pizz.
pizz.
8-xona pizz.
p


9-xona
p
mf
10-xona
Bozgo‘y
p

# SAQILI VAZMIN

soz

M.M. ♩=60





p
pizz.
p
2-xona
mf
p
Bozgo‘y
p
mf


pizz.
3-xona
mf
4-xona
f




soz

## SAQILI RAK-RAK

**M.M. ♩=60**




pizz.
pizz.
pizz.
Bozgo‘y
pizz.
pizz.


2
p
mf
p
pizz.
p
Bozgo‘y
mf
pizz.
pizz.
3
mf


pizz.
Bozgo‘y
pizz.
pizz.
4


f
pizz.
p
Bozgo‘y
mf
pizz.
pizz.
p

# MO‘G‘ULCHAYI BUZRUK




p
pizz.
pizz.
pizz.
pizz.


pizz.
pizz.
p
f
f




## TALQINCHAYI MO‘G‘ULCHAYI BUZRUK




mf
mf


pizz.
p


pizz.

SOZ 

## QASHQARCHAYI MO‘G‘ULCHAYI BUZRUK




mf
f



SOZ 

## SOQIYNOMAYI MO'G'ULCHAYI BUZRUK

M.M. ♩=120




mf



# UFARI MO‘G‘ULCHAYI BUZRUK








# TALQINI USHSHOQ






mf
f


mf


p
pizz.
p
pizz.
mp
pizz.
pizz.
pizz.
p

soz 

# TALQINI USHSHOQ TARONASI






# NASRI USHSHOQ

soz 

**M.M. ♩=88**




p
f
mf


pizz.


f






soz

## TALQINI UZZOL

**M.M. ♩=152-160**
**♩=88-92**




II
mf
III
f


IV
mf
f
V
f
mf


p
Va)
mf
VI
f


pizz.
VII


mf
pizz.
p




## TALQINI UZZOL TARONASI





mf
Suporish

soz 

# NASRULLOYI

**M.M. ♩=84-88**




pizz.
pizz.
f
mf









SOZ 

## NASRULLOYI I TARONASI

**M.M. ♩=84-88**




pizz.
p
mf
f
p
mf
f




soz

## NASRULLOYI II TARONASI





# HOJINIYOZ I

Og'ir





# HOJINIYOZ TALQINCHASI




51
56
62
69
75
80
86
92
98
105
111
114

# HOJINIYOZ QASHQARCHASI

O'rtacha





## HOJINIYOZ SOQIYNOMASI






## HOJINIYOZ UFORI




30
35
41
46
51
56
62
67
72
78
83
88


93
98
103
107

## GLOSSARIY

Ushbu atamalar glossariysida dutor ijrochiligida, umuman barcha cholg‘ularda ixtisolik fani bo‘yicha yakka mashg’ulotlarda qo‘llaniladigan atamalarning qisqacha izohi keltirilgan.

Mazkur glossariy nafaqat oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi, musiqiy sanhati ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari talabalariga, shuningdek, professor-o‘qituvchilar va aspirantlar hamda barcha soha mutaxassislari uchun ham foydalidir.

***mf*** *– metsso forte* – ortacha kuchli;

***f*** *– forte* – kuchli;

***ff*** *– fortissimo* – juda kuchli;

***p*** *– piano* – mayin, kuchsiz;

***pp*** *– pianissimo* – juda mayin, juda kuchsiz;

– *kreshchendo* – tovushni asta-sekin kuchaytirish;

– *diminuendo* – tovushni asta-sekin susaytirish;

> – *aksent* – tovushni ajratib, baland chalish.

*Avj* [ arab. – chuqqi ] – musiqa bayoni va rivojida eng yuqori nuqta.

*Akkord* – turli balandlikdagi uch va undan ortiq tovushlarning qo‘shilib yaxlit holda yangrashi .

*Aksent* – biror tovush yoki akkordni qattiq chalish .

**Vazmin sur’atlar**

L a r g o - lyargo – juda cho‘zib, keng;

L e n t o – lento – cho‘zib;

A d a g i o – adajio – og‘ir, vazmin.

**Tez sur’atlar**

A l l e g r o - *allegro* - tez;

V i v o - *vivo* - jonli;

V i v a c e - *vivache* – jad-u jadal bilan;

P r e s t o - *presto* - tez, oshiqib;

P r e s t i s s i m o - *prestissimo* - juda tez, eng tez.

A tempo, tempo I - a tempo, tempo primo – avvalgi sur’atga qaytish.

**Doston** so‘zi *forscha* qo‘lning davomi, barmoq o‘rni, parda degan tushunchalarni anglatadi. Istilohiy ma’noda esa afsona, rivoyat, ertak, hikoya, poema ma’nolarni bildiradi.

**Musiqiy asar:** Ma’lum bir musiqiy asar B.Asafyev ta’biri bilan aytganda, uch xil ko‘rinishda mavjud bo‘ladi.

Bu nota matni, ya’ni yozuv asosida.

Ijrochi tomonidan talqin qilingan jonli ijroda.

Tinglovchining hayotiy tajribasi va badiiy obrazlarning u tomonidan qabul qilinishi natijasida asarni haqiqiy ijro jarayoni amalga oshiriladi.

**Musiqiy ifoda** vositalari: tovush hosil qilish va uning akustik asoslari, musiqiy tovush, sozning tozaligi (intonatsiya), tovush tusi (tembr), nola (vibrato),

usul (ritm), o’lchov, surhat, agogika, artikulyatsiya, dinamik belgi va boshqalar kiradi.

**Ashula** – keng tarqalgan vokal musiqa janri va shakli bo‘lib, unda she’riy va musiqiy obrazlar bir-biriga uyg’unlashgan holda gavdalanadi. Ashulaning xalq va mualliflik turlari mavjud. Ashula tuzilishi va ijrosi bo‘yicha turli janrlarga bo‘linadi. Masalan, ommaviy, estrada, ansambl, xor va boshqalar.

**Ufor**: – 1) yengil raqs musiqasi yoki doira usuli; 2) «Shashmaqom» va boshqa maqom turkumlaridagi Nasr (ashula) bo’limining oxirida keladigan ba’zan raqsli ashula yo‘li.

**Qo’shiq** – she’r va kuyi keyinchalik muayyan muallif xalq tomonidan ijod qilinib, keng tarqalgan musiqa janri. Qo‘shiq she’rlari bir necha banddan iborat bo‘lib, ba’zan naqarotli bo‘ladi.

**Sezgi** – inson organizmi tomonidan eshitish, ko‘rish, hid bilish, tana sezgisi, ta'm bilish kabi a’zolari orqali moddiy dunyoni anglaydi.

**Idrok** – narsalar yoki hodisalarning sezgi a'zolariga bevosita ta'siri orqali ongimizda aks etishiga idrok deyiladi. Sezgida predmetning alohida qismlari, idrokda esa predmetning barcha tarkibiy qismlari bir butunlikda his qilinadi. O‘z ijrosini eshitgan sozanda tajribasiga tayanib uni tahlil qiladi va umumlashtirgan holda xulosa yasab xatolarini tuzatish uchun qarshi harakatga shaylanadi.

**Tasavvur** bilimning ibtidosi bo‘lib, bosh miyada (analiz va sintez asosida) hosil bo‘ladi va tafakkurdan farqli o‘laroq, ijrochi xayolida oldindan aks etadigan tushunchalar tizimi bo‘lib, badiiy ijodiyotning barcha turlariga xosdir.

**His, tuyg‘u va hayajon (emotsiya)** – Inson ruhiyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bo‘lib, kishi o‘zining hayotiy faoliyati jarayonida atrofini o‘rab turgan moddiy borliq bilan doimo muloqotda bo‘ladi. Buning natijdasida shod-u xurramlik, qayg‘u va g‘am, to‘lqinlanish va hayajon, mag‘rurlik va iftixor, jahl va g‘azab, hayratlanish, xafa bo‘lish kabi boshqa ko‘plab mayil va tuyg‘ular (obyektiv dunyoga subyektiv munosabat kechinmalari) insonning emotsional his-hayajon holatini ifodalaydi.

**Emotsiya** (tuyg‘u kechinmalarining shakli) ijobiy va salbiy turlarga bo‘linadi. Ijobiylari: shod-u xurramlik, to‘lqinlanish va hayajon, mag‘rurlik va iftixor, hayratlanish va boshqalar. Salbiylari: qayg‘u va g‘am, jahl va g‘azab, xafa bo‘lish kabilaridan tashkil topadi.

**Musiqiy ifoda** vositalari: tovush hosil qilish va uning akustik asoslari, musiqiy tovush, sozning tozaligi (intonatsiya), tovush tusi (tembr), nola (vibrato), usul (ritm), o‘lchov, sur'at, agogika, artikulyatsiya, dinamik belgi va boshqalar kiradi.

**Tovush** – fizik hodisa bo‘lib, tarang tortilgan jism (sim, yassi plastinka va h.k.)ning tashqi ta’siri natijasida mexanik harakatga kelishi – tebranishi natijasida hosil bo‘ladigan jarayondir. Tabiatda qulog‘imiz ilg‘aydigan turli xil tovushlar mavjud. Lekin ularnig hammasini ham musiqiy tovush deb bo‘lmaydi. Musiqiy tovush o‘zining to‘rt xossasi: a) bir-biriga nisbatan baland pastligi; b) tusi (tembri); v) davomiyligi, ya’ni cho‘zimi; g) kuchi bilan shovqinli tovushlardan farq qiladi.

**Intonatsiya** (lotincha – baland, yuqori). Uning tozaligiga erishish uchun, avvalo, sozandaning cholg‘u asbobi sifatli ishlangan va chalinib, tajribadan o‘tgan bo‘lishi kerak. Bundan tashqari tovushning toza chiqishi ijrochining mahoratiga va kayfiyatiga ham bog‘liq. Shuningdek, cholg‘udagi qo‘shimcha pardalar (dopolnitelnaya applikatura) ni qo‘llash orqali ham tovushning past yoki balandligini muvofiqlashtirish mumkin.

**Vibrato** – to‘lqinlatish, tovush nolasi, tovush sifatini boyituvchi omillardan bo‘lib, u tovushga o‘ziga xos joziba baxsh etadi va go‘yo uni qizdirib jonlantiradi.

**Tovush kuchi** tebranish harakatinig kengligi va kuchiga bog‘liq. Ya'ni tovush hosil qiluvchi membrananing tebranish miqyosi – amplitudasi qancha keng va kuchli bo‘lsa, tovush ham shuncha kuchayadi. Dinamik o‘zgarishlar uch asosiy guruhga taqsimlanadi:

a) turg‘un, ya’ni o‘zgarmaydigan;

b) asta-sekin o‘zgaruvchan, pog‘onama-pog‘ona kuchayib yoki pasayib boruvchi turlari mavjud: kuchsizdan (pastdan): pp-p-mp-mf-f-ff kuchliga va aksincha, kuchlidan *ff-f-mf-mp-p-pp* susayib boruvchi;

v) qarama-qarshi tafovutli (kontrastniy) *p-f, pp-ff* va unga aloqador urg‘ular tovush kuchini oshirish va pasaytirish belgilari sifatida asar mohiyatini ochishda xizmat qiladi.

**Ijrochilik texnikasi:** barmoqlar harakatchanligi kabi omillar kiradi.

**Ijrochilik holati:** cholg‘u sozini qanday ushlash, uni  chalishga hozirlash va chalish uchun (butun tana, bosh, qo‘llar, oyoqlar, ambushyur) tayyor bo‘lish tushuniladi.

**Zarb** – arabcha - urmoq, urish ma'nosini bildiradi va mazkur cholg‘uda barmoq yordamida zarb bilan urish, barmoq bilan chertish, silkitish va boshqa harakatlar orqali tovush hosil qilinadi.

**Musiqiy xotira** – inson ruhiy jarayonining muhim jihatlaridan biri yod olish va xotirada saqlash bo‘lib, uning mohiyati esda saqlab qolish va zarur paytda o‘sha xotiradagilarni ma'lum bir vosita orqali yuzaga chiqarish, namoyon qilish hisoblanadi.

Xotira turlari:

a) tovush balandligi, kuchi, tembri, lad tizimi, usuli, ohangdoshligi, kuy va qo‘shiq shaklini esda saqlash bilan bog‘liq xotira turlari;

b) inson qiyofasi, tabiat manzarasi, buyum namunasi, biror obraz, nota yozuvi, ularning cho‘zimi, turoqlanishi va boshqalarning qog‘ozda – yozuvda, ekranda ifodalanishi ko‘zda muhrlanadi va ko‘rish xotirasiga kiradi; v) turli harakatlarni eslab qolish va uni qaytarish (dirijerlik, raqs, pantomima va h.k.), cholg‘u asbobini tana sezgi organlari (lab, qo‘l va barmoqlar, nafas organlari harakati va h.k.) sezib eslab qolinishi sezgi-harakat xotirasi; g) esnash, kulish, yig‘lash, lazzatlanish, ta'sirlanish, emotsiya tuyg‘ularini esga olib, o‘zida aks ettirish his-hayajon xotirasi; d) hikoya, roman, she'r, maqol, topishmoq va boshqalar so‘z-mantiq xotirasi turlariga kiradi.

Xotirani yanada mustahkamlash uchun ustoz sozandalar (G.G.Neygauz) tomonidan musiqiy asarni yod olishda quyidagicha yo‘l tutilishi uqtiriladi:

a) asarni nota bilan cholg‘u asbobida chalib, esda saqlashga harakat qilish;

b) notasiz cholg‘uda yoddan chalish;

v) cholg‘u asbobisiz notaga qarab, ko‘rish orqali ko‘z xotirasida mustahkamlash;

g) notasiz va cholg‘u asbobisiz xayoldan o‘tkazish orqali musiqiy xotira mustahkamlanadi.

Musiqiy xotira mustahkam bo‘lishi uchun nafaqat aqliy xotira (quvvayi hofiza), balki, «qalb xotirasi» zarurligini ko‘pchilik olimlar ta'kidlashadi.

**Usul** sezgisi musiqiy asarlarning tuzilishida eng asosiy omillardan biri bo‘lib, ijrochilik jarayonida katta ahamiyatga ega. U inson organizmi bilan tabiatdagi o‘zaro o‘lchov va ritmik bog‘liqlik hamda mutanosiblikni ifodalaydi. Bunda insonning yurak urishi, nafas olishi, qadam tashlashi, hissiy (emotsional) harakat sezgilari tabiatining barcha jihatlari bilan bog‘liqdir.

**Tizim** – bog’liqlik

**Keys stady** – aniq vaziyatni o‘rganish, tahlil etish ijtimoiy ahamayatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta’lim.

**Folklor –** xalq og‘zaki ijodiyoti.

**Forshlag** – kichik notachalar bilan ko‘rsatilgan bir yoki bir necha tovush bo‘lib, buning uzunlik miqdori takt o‘lchoviga kirmaydi. Undan keying notaga bog‘lanib keladi.

## TESTLAR

1. «Shashmaqom» XX asrgacha qay tarzda yetib kelgan?
   A) Og‘zaki, ustoz-shogird an’anasi orqali.
   B) Yozma manbalar.
   C) Nota yozuvlari.
2. O‘tmishda maqomlar qaysi cholg‘u asboblarida ijro etilgan?
   A) Nog‘ora va dombra.
   B) Ud va nog‘ora.
   C) Doira va tanbur.
3. «Shashmaqom» dastlab qachon va kim tomonidan notaga tushirilgan?
   A) 1923. V.Uspenskiy.
   B) 1925. Y.Rajabiy.
   C) 1950. Y.Rajabiy.
4. O‘zbekistonda nechta maqom yo‘llari mavjud?
   A) 2.
   B) 4.
   C) 3.
5. 2-4 hofiz tomonidan cholg‘u jo‘rligisiz ijro etiladigan janr nima deb ataladi?
   A) Doston.
   B) Maqom.
   C) Katta ashula.
6. 12 maqom qanday ataladi?
   A) Chormaqom.
   B) Duvozdahmaqom.
   C) Xorazm.
7. Turkiston xalq konservatoriyasi nechanchi yilda ochilgan?
   A) 1920.
   B) 1918.
   C) 1930.
8. Toshkent davlat konservatoriyasi tashkil topgan sanani belgilang?
   A) 1936.
   B) 1937.
   C) 1938.
9. O‘zbekiston Respublikasi madhiyasining muallifi kim?
   A) I.Akbarov.
   B) S.Yudakov.
   C) M.Burhonov.
10. Dutor so‘zi qaysi til vositasida yaratilgan?
   A) Arab.

B) Fors.
C) Tojik.
11. Dutor cholg‘usi qays daraxtdan yasaladi?
A) Olma.
B) Tut.
C) Terak.
12. Maqomat – yer yuzining qaysi qit'alarida tarqalgan?
A) Afrika.
B)Yevropda.
C) Osiyoda.
13. Hozirgi maqom ansambli kimning nomi bilan yuritiladi?
A)Yunus Rajabiy
B)Doni Zokirov
C)Faxriddin Sodiqov
14. «Shashmaqom»ning ashula qismi qanday ataladi?
A) Nasr.
B) Savt.
C) Mushkilot.
15. «Saraxbori Buzruk»da nechta tarona bor?
A) 4 ta.
B) 6 ta.
C) tarona yo‘q.
16. «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali necha yilda o‘tkaziladi?
A) 1 yilda.
B) 3 yilda.
C) 2 yilda.
17. «Saraxbori Rost»da nechta tarona bor?
A) 4 ta.
B) 5 ta.
C) 6 ta.
18. O‘zbekiston davlat konservatoriyasining yangi binosi qaysi yili qurilgan?
A) 2002.
B) 2003.
C) 2001.
19. 1-Respublika maqom ijrochilari tanlovi nechanchi yili o‘tkazilgan?
A) 1978.
B) 1983.
C) 1987.
20. Uyg‘ur maqomlari nechta?
A) 4 ta.
B) 6 ta.
C) 12 ta.

21. «Maqomlar masalasiga doir» nomli kitobning muallifi kim?
A) Ishoq Rajabov.
B) Tohir Rajabiy.
C) Otanazar Matyakubov.
22. O‘zbek xalq cholg‘u asboblari kim tamondan rekonstruksiya qilingan?
A) A.I.Petrosyans.
B) A.Odilov.
C) Usta Usmon Zufarov.
23. Dutor cholg‘usi qaysi cholg‘ular guruhiga kiradi?
A) Urma sozlar.
B) Mizrobli sozlar.
C) Chertib chalinadigan.
24. An’anaviy ijrochilik kafedrasi nechanchi yili tashkil topgan?
A) 1970.
B) 1972.
C) 1978.
25. «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali qayerda o‘tkaziladi?
A) Buxoroda.
B) Boysunda.
C) Samarqanda.
26. «Mug‘ylchayi Navo» turkumi qaysi maqomga kiradi?
A) Farg‘ona-Toshkent maqomiga.
B) «Navo» maqomiga.
C) «Dugoh» maqomiga.
27. Xorazm maqomini kim notaga olgan?
A) Hojihon Boltayev.
B) Matniyoz Yusupov.
C) Komiljon Otaniyozov.
28. Talqin usulining o‘lchovini toping?
A) 4/4  2/4.
B) 5/4.
C) 3/4  3/8.
29. Nasr usulining o‘lchovini toping?
A) 4/4  2/4.
B) 3/8  3/4.
C) 2/4  4/4.
30. «Talqini Ushshoq» qaysi maqomga kiradi?
A) Rost.
B) Iroq.
C) Navo.
31. Shashmaqomning qaysi maqomida «Tarje’» qismi yoq?
A) Buzruk.
B) Iroq.
C) Rost.

32. «Shashmaqom»ning qaysi maqomoda «Gardun» qismi yoq?
A) Buzruk.
B) Iroq.
C) Rost.
33. «Shashmaqom»ning ashula yo‘li qanday nomlanadi?
A) Ashula.
B) Sho‘ba.
C) Nasr.
34. «Shashmaqom»ning cholg‘u yo‘li qanday nomlanadi?
A) Mushkilot.
B) Sho‘ba.
C) Cholg‘u.
35. Dutor cholg‘usi haqida nechanchi asrda va kim tomonidan ilk bor tilga olingan?
A) Darvishali Changiy XVI asr.
B) Al-Husayniy XV asr.
C) Farobiy X asr.
36. Qaysi vohalarda dutor ijrochilik maktablari mavjud?
A) Xorazm, Toshkent, Andijon.
B) Qashqadaryo, Jizzax.
C) Navoiy, Buxoro.
37. «Mushkilot» bo‘limining asosiy qismlarini ko‘rsating?
A) Tasnif, Tarje’, Gardun, Muxammas, Saqil.
B) Tasnif, Peshrav, Gardun, Muxammas, Saqil.
C) Tasnif, Tarje’, Gardun, Hafif, Saqil.
38. Xorazm maqomlarining ashula yo‘li qanday nomlanadi?
A) Ashula.
B) Sho‘ba.
C) Aytim.
39. Xorazm maqomlarining cholg‘u yo‘li qanday nomlanadi?
A) Cholg‘u.
B) Chertim.
C) Sho‘ba.
40. Saql Vazmin qaysi maqomga kiradi?
A) Buzruk.
B) Navo.
C) Iroq.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. Rajabov I. «Maqomlar masalasiga doir» T. 1963.
2. Кароматов Ф. «Узбекская инструменталная музыка». М., «Музыка», 1987.
3. Rasultoyev J. «O‘zbek dutor ijrochiligi» T., «O‘qituvchi». 1997.
4. Ziyoyeva M. «Dutor» T., 2008.
5. Fitrat A. «O’zbek klassik musiqasi va uning tarixi». T., 1993.
6. Toshpo‘latova I. “Dutor taronalari” T., 2010.
7. Toshpo‘latova I. An’anaviy dutor ijrochiligi. –T., 2004.
8. Qosimov R. An’anaviy tanbur ijrochiligi. –T., 2002.
9. Rajabiy Y. Shashmaqom. II jild. –T., 1968.
10. Rajabiy Y. Shashmaqom. I jild. –T., 1966.
11. Rajabiy Y. Maqom asoslari. –T., 1963.
12. Gramplastinkalar: Д-019013, Д-019014, Д-020507.
13. Hojiyeva R. Dutorim sozim mening. T., 1999.
14. Hojiyeva R. Dutor taronalari. T., 2007.
15. Qosimov R. «Rajabiyxonlik» ilmiy anjuman materiallari. T., 1994.
16. O‘zbekiston teleradiokompaniyasining «Oltin fondi»da saqlanayotgan audio yozuvlari.

**MUNDARIJA**


| | |
|---|---|
| **Kirish** ……………………………………………………………………… | 3 |
| **An'anaviy cholg'u(dutor) sinfi** ……………………………..………............ | 5 |
| **Dutor tarixidan** …………………………………………………………..... | 6 |
| **Dutor va uning o'zbek an'anaviy musiqa ijrochiligidagi o'rni** ………… | 8 |
| **Dutor ijrochiligidagi maktablari** ………………………………………… | 10 |
| **Mohir ustozlarning ijro uslublari haqida** ……………………………... | 11 |
| **Dutor ijrochiligidagi bezaklar** …………………………………………… | 13 |
| **Berilgan asarlarga izohlar** ........................................................................ | 16 |
| Tasnifi Rost ...................................................................................... | 19 |
| Garduni Rost ..................................................................................... | 25 |
| Muxammasi Ushshoq ......................................................................... | 28 |
| Muxammasi Panjgoh ......................................................................... | 32 |
| Saqili Vazmin .................................................................................... | 37 |
| Saqili Rak-rak ................................................................................... | 40 |
| Mo'g'ulchayi Buzruk .......................................................................... | 45 |
| Talqinchayi Mo'g'ulchayi Buzruk ........................................................ | 48 |
| Qashqarchayi Mo'g'ulchayi Buzruk ...................................................... | 52 |
| Soqiynomayi Mo'g'ulchayi Buzruk ....................................................... | 54 |
| Ufari Mo'g'ulchai Buzruk .................................................................. | 57 |
| Talqini Ushshoq ................................................................................. | 59 |
| Talqini Ushshoq taronasi .................................................................... | 64 |
| Nasri Ushshoq ................................................................................... | 65 |
| Talqini Uzzol ..................................................................................... | 70 |
| Talqini Uzzol taronasi ........................................................................ | 76 |
| Nasrulloi ........................................................................................... | 78 |
| Nasrulloi I taronasi ............................................................................ | 83 |
| Nasrulloi II taronasi........................................................................... | 85 |
| Hojiniyoz ……………………………………………………………….. | 87 |
| Hojiniyoz talqinchasi ………………………………………………… | 89 |
| Xojiniyoz qashqarchasi | 91 |
| Xojiniyoz soqinomasi | 92 |
| Xojiniyoz ufori | 93 |
| **Glossariy** ………………………………………………………………… | 96 |
| **Testlar** ……………………………..……………………………………. | 100 |
| **Adabiyotlar** ……………………………………………………….…...... | 104 |

## TESTLARNING JAVOBLARI:

1. A
2. C
3. A
4. C
5. B
6. B
7. B
8. A
9. C
10. B
11. B
12. C
13. A
14. A
15. B
16. C
17. B
18. A
19. B
20. C
21. A
22. A
23. C
24. B
25. C
26. C
27. B
28. C
29. C
30. A
31. C
32. B
33. C
34. A
35. B
36. A
37. A
38. C
39. B
40. A

**TOSHPO‘LATOVA IQBOL SABIRJONOVNA**

# AN’ANAVIY CHOLG‘U IJROCHILIGI

(dutor)

*Oliy ta’lim muassasalari uchun*
*o‘quv qo‘llanma*

(o‘zbek tilida)


| | |
|---|---|
| Noshir | *O.Rahimov* |
| Muharrir | *X.Yusupova* |
| Badiiy muharrir | *Sh.Odilov* |
| Texnik muharrir | *N.Ismoilova* |
| Nota muharriri | *A.Mansurov* |
| Kompyuterda tayyorlovchi | *B.Ashurov* |

Nashriyot litsenziya raqami: AI № 126.2008.12-noyabr.

«Musiqa» nashriyoti, Toshkent sh., Olmazor ko’ch., 1.

Bosishga ruxsat etildi 4.04.2018. Bichimi 60 x 84 1/8.
Times New Roman garniturasi. Shartli b.t. 13,5 b.t. Adadi 350 nusxa (1-zavod 50 nusxa).

«Complex Print» MChJda chop etildi. Toshkent sh., Navoiy ko‘chasi, 24.
tel. 244-40-89, e-mail: complex.print@mail.ru
Litsenziya № 10-3606 от 10.02.2016.